

DARS ISHLANMA NAMUNASI

Sana:

Sinf: 3-sinf

Mavzu: Gapda kesimning qo'llanilishi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarda gap va uning qismlarini farqlash, imlosiga rioya qilish; so'zlarfa so'roq berish orqali ularni turkumlarga ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish. (Lingvistik kompetensiya (OTMT.3.LK.TII.10); OTMT.3.LK.TII.6));

Tarbiyaviy maqsad: munozara jarayonida mavzudan chetga chiqmagan holda o'z fikrini erkin navbat bilan bayon qilish va asoslash, shaxsiy qarashlarini odob bilan himoya qilish (Nutqiy kompetensiya:og'zaki nutq (OTMT.1.NK.ON.2));

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda berilgan mavzuda og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri va ravon so'zlay olish; hikoya va ertaklardagi qahramonlarni tasvirlay olish; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash ko'nikmalarini takomillashtirish (Nutqiy kompetensiya: og'zaki nutq (OTMT.1.NK.ON.1; OTMT.1.NK.ON.3); tinglab tushunish (OTMT.1.NK.A.TT.4)).

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars tipi: noan'anaviy

Dars metodi: ko'rgazmali metod, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: doska, bo'r, darslik, ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, individual topshiriqlar.

Darsning texnologik xaritasi

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	7 daqiqa
3	Yangi mavzuga zamin yaratish	8 daqiqa
4	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
6	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	2 daqiqa
Jami:		45 daqiqa

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

O‘quvchilar bilan salomlashilib, davomat olinadi. Navbatchi axboroti tinglanadi. O‘quvchilarning diqqatini dars mashg‘ulotiga qaratish maqsadida refleksiya mashqi o‘tkaziladi.

II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash.

O‘quvchilar bilan o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Kim ko‘proq, kim tezroq” metodidan foydalaniladi. Sinf 3 guruhga bo‘linadi va har bir guruh nomlanib, doskaga yoziladi. Guruhlar bir qancha tezkor savollarga ajratilgan vaqt ichida javob berishi lozim. O‘qituvchi nechta savolga to‘g‘ri javob berilganini sanab, qayd etib boradi. Eng ko‘p va eng tez bergan javoblariga muvofiq guruhlar 1 ball doirasida baholanadi. Bu metod o‘quvchilarda tez fikrlash, topqirlik, hozirjavoblik malakalarini rivojlantirishga yordam beradi va o‘quvchining diqqat-e’tiborini kuchli jalb qilishi, guruhni jonlashtirishi va faollashtirishi bilan farqlanadi.

III. Yangi mavzuga zamin yaratish.

Mavzuga tayyorgarlik qilish uchun har bir o‘quvchiga alohida kartochkalar tarqatiladi va varaqqa tikilishi bilan ko‘rgan suratiga oid bitta gap

tuzish topshirig‘i beriladi. So‘ng o‘quvchilardan tuzgan gaplarini 2 so‘zdan iborat ma’noli gapga aylantirish so‘raladi. O‘quvchilar gaplarni tuzib bo‘lishgacha, nimalar o‘z o‘rnida qolgani va qaysi so‘zlar gapda qayta tiklanganiga e’tibor berishi so‘raladi. O‘quvchilar gapda kesimning o‘rni barqaror ekanligini tushunib yetishi uchun qisqa savol-javob o‘tkaziladi.


III. Yangi mavzu bayoni.

O‘quvchilar 17-mashqda berilgan rasimli hikoyani o‘qiydilar. Duskada tayyorlangan jadvalga kesimlarni va ularning so‘roqlarini yozadilar.

<i>T/R</i>	<i>Kesimlar</i>	<i>So‘rog‘i</i>


So‘ng o‘quvchilarga kesimlarning egasi bilan bog‘liq holda qaytadan og‘zaki hikoya qilib berish topshiriladi. 2-3 nafar o‘quvchi hikoyani qaytadan qisqartirib bayon qiladi.

18-mashqda “Tabiat” so‘ziga sinkveyn tuzish guruhlar kesimida bajariladi. Har bir guruhga alohida sinkveyn uchun topshiriqlar beriladi. Tez va to‘g‘ri bajargan guruh 5 ball tizimida baholanadi.




IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

19-mashq o'quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida beriladi. Topshiriqni eng birinchi bajargan 10 nafar o'quvchi guruhlar kesimida tahlil qilinadi. Topshiriqni bajargan qaysi guruh a'zolari ko'p bo'lsa, o'sha guruhga 1 ball taqdim etiladi.



Mavzu yanada mustahkam bo'lishi uchun doskada bajarish uchun yana bir topshiriq beriladi. Qaysi guruh o'quvchilari faol ishtirok etsa, o'sha guruh yana

qo‘shimcha 1 ballga ega bo‘ladi. Mazkur topshiriqda o‘quvchilar daraxt rasmga kesimlarni yozib chiqadi.



VI. O‘quvchilarni baholash va darsni yakunlash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar baholanadi hamda rag‘batlantiriladi.

VII. Uyga vazifa berish. 20-mashq uyga vazifa qilib beriladi va o‘quvchilarga sharti tushuntiriladi.

KIM?	• •	
NIMA?	• •	
NIMA QILDI?	• •	

